

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA SUV XO‘JALIGI
VAZIRLIGI**

TOSHKENT IRRIGATSIYA VA MELIORATSIYA INSTITUTI

«O‘ZBEK TILI VA CHET TILLARI» KAFEDRASI

O‘ZBEK TILI FANIDAN

**Lug‘atlar ustida ishlash orqali
talabalarning so‘z boyligini oshirish
Metodik ko‘rsatma**

Toshkent-2015

Ushbu Metodik ko'rsatma institutni ilmiy - metodik Kengashining 2015- yil bo'lib o'tgan- sonli majlisida ko'rib chiqildi va chop etishga tavsiya etildi.

Metodik ko'rsatma rus guruhlar uchun mo'ljallangan bo'lib talabalarning imlo savodxonligini oshirish, so'z boyligini kengaytirishlarida va yozma, og'zaki nutqlarini rivojlantirishda yaqindan yordam beradi.

Ushbu metodik ko'rsatmada lug'at turlari haqida batafsil ma'lumot keltirib, ulardan qanday foydalanish yo'llari haqida to'liq tushuncha va ko'rsatma berilgan.

Tuzuvchi: K.N.Rahimova, dots.

Taqrizchilar: N.Husanov –TMI professor, filologiya fanlari doktori
«O'zbek va rus tillar» kafedrasi mudiri,

R.T.Qodirova –katta o'qituvchi

Kirish

Modomiki, talabalarning soʻz boyligini oshirish oʻzbek tili mashgʻulotlarining asosiy vazifalaridan biri ekan, ularni turli lugʻatlar bilan tanishtirish va bu lugʻatlardan foydalanish malakalarini shakllantirish, ayniqsa, muhim masala hisoblanadi. Lugʻat imlo savodxonligini oshirish, soʻz boyligini kengaytirishning muhim manbai, talabaning asosiy maslahatchisidir.

Lugʻatlardan foydalanish malakalarini shakllantirish avvalo ularda ehtiyojni tarbiyalashdan boshlanadi. Chunki ehtiyoj sezilmasa, talaba lugʻatga murojaat qilmaydi. Maʼlum bir soʻzning imlosi, maʼnosi, maʼnodoshi, qarama-qarshi maʼnosi, uyadoshini bilish zaruriyati ehtiyojni vujudga keltiradi.

Talabalarni ular faoliyatida zarur boʻladigan lugʻat turalri bilan tanishtirishga alohida eʼtibor berish kerak. Chunki turli lugʻatlar bilan tanishgan talaba nimani qayerdan izlash kerakligini ham yaxshi biladi.

Maʼlumki keyingi yillarda oʻzbek leksikografiyasi katta muvaffaqiyatlarni qoʻlga kiritdi. Ayniqsa, 2 tomlik izohli lugʻat, imlo lugʻati, morfem lugʻat, frazeologik lugʻat, sinonim soʻzlarning izohli lugʻati, antonim soʻzlarning izohli lugʻati, paronimlar lugʻati, orfoepik lugʻat, joy nomlari lugʻati, turli tarjuma lugʻat, turli sohalarga oid atamalarining izohli lugʻatlari (masalan, paxtachilik atamalarining izohli lugʻati, matematik atamalarining izohli lugʻati kabi)ning nashr etilganligi oʻzbek leksikografiyasining taraqqiyotidan dalolat beradi. «Oʻzbek tilining izohli lugʻati», «Oʻzbek tilining uyadosh soʻzlar lugʻati », «Oʻzbek tilining maʼnodosh soʻzlar lugʻati», «Oʻzbek tilining qarama-qarshi maʼnoli soʻzlar lugʻati» kabilarga tobora koʻproq zaruriyat sezilmoqda

Lugʻatlardan tez va toʻgʻri foydalanish uchun oʻquvchi zarur malakalarga ega boʻlishi lozim. Bu malakalardan eng muhimi alifbo tartibini yaxshi bilishdir. Aifboni yoddan bilmagan talaba lugʻatdan zarur soʻzni tez topa olmaydi. Shuning uchun talabalarning alifbo tartibini yaxshi bilishlariga erishish va izchil oʻrganish jarayonida muntazam ish olib borishga toʻgʻri keladi.

TALABALARDA LUG‘ATLARDAN FOYDALANISH MALAKASINI SHAKLLANTIRISH.

Lug‘at bilan ishlash uchun zarur malakalardan yana biri ulardan maqsadga muvofiq ravishda foydalanishdir. masalan, sinonimik qatorlar hosil qilish zarur bo‘lsa, imlo lug‘atiga murojaat etilmaydi. Topshiriqni bajarish uchun qaysi lug‘atga murojaat etish kerakligini bilgan talaba, shubhasiz, undan samarali foydalana oladi.

Lug‘atlar turli-tuman bo‘lgani kabi, ular bilan ishlash usullari ham rang-barangdir. Talabalarining lug‘at bilan ishlash malakalarini shakllantirish uchun muayan ish turlari talab etilsa, ularning imlo savodxonligini oshirish uchun tamoman boshqa, so‘z boyligini rivojlantirish uchun esa o‘ziga xos maxsus mustaqil ish turlaridan foydalanish talab qilinadi.

«Imlo lug‘ati» bilan ishlash faqat o‘quvchilarning imlo savodxonligini emas, balki so‘z boyligini oshirishda ham muhim qo‘llanmadir.

O‘zbek tilining barcha bo‘limlarini o‘rganishda «Imlo lug‘ati»dan unumli foydalanish kerak. Masalan, «Fonetika, orfoepiya, grafika va orfografiya» bo‘limini o‘rganishda **a, i, u, o‘** harflari ishtirok etgan so‘zlar topish, **u-o‘, i-u, a-i** va h.k. juftlar bilan farqlanuvchi so‘zlar tanlash, birinchi bo‘ginda **u, o‘**, ikkinchi bo‘ginda **u** yoki **i** kelgan so‘z juftlari (urush-urish, tushum-tushim va h.k.) ustida ishlash **i-u** tovushlari (harflari)ning tushib qolishi, bu tovushlar tushib qolgan so‘zlar ro‘yxatini tuzish: **o-a** bilan farqlanuvchi so‘z juftlari (ana-ona, ata-ota va h.k.) tanlash, **i-e** (e) bilan farqlanuvchi so‘z juftlarini topish (ish-esh, bil-bel, tish-tesh kabi) ishlarini bajarishda «Imlo lug‘ati» zarurdir.

«Ot» so‘z turkumini o‘rganishda otlarning ma’no guruhlariga misollar tanlash, juft shaxs otlari, qo‘shib va ajratib yoziladigan qo‘shma otlar ro‘yxatini tuzish, «sifat+turdosh ot», «son+turdosh ot», «ot+fe‘l+ar» qolipli hosilalar ustida ishlash kabi mustaqil ishlar shu lug‘at yordamida bajariladi.

Xullas, «Imlo lug‘ati»dan ona tilining barcha bo‘limlarini o‘rganishda unumli foydalaniladi. U talabaning doimiy yoldoshi, darslik materiallarini to‘ldiruvchi zarur qo‘llanma sanaladi.

Ensiklopediya ilm-fanning hamma sohalarini o‘z ichiga olgan yoki biror soha bo‘yicha keng, to‘liq ma’lumot beradigan. Lug‘at tarzidagi ilmiy to‘plam yoki qomusdir. Talaba bu qomusdan barcha jumboqlarga javob topadi, istagan bir tushuncha haqida keng va atroflicha ma’lumot oladi.

Talabalar ushbu qomusdan foydalanib, ma’lum bir sohaga taaluqli tushunchalar ro‘yxatini tuzishlari, bu tushunchalarning ma’nosini aniqlashlari, tushuncha va so‘z orasidagi farqni bilib olishlari kerak.

Izohli lug‘atlar o‘zbek tili mashg‘ulotlarida tez-tez kerak bo‘ladigan qo‘llanmalardir. Ulardan unumli foydalanish o‘quvchilar nutqin ko‘p ma’noli so‘zlar, ma’nodosh, uyadosh va qarama-qarshi ma’noli so‘zlar, tasviriy ifoda va iboralar, frazeologik birikmalar bilan boyitish, ma’nosi har xil, shakli bir-biriga yaqin so‘zlar (paronimlar)ni farqlash, so‘zlarning ma’no nozikligi va qaysi uslubga xosligini aniqlashga yordam beradi. Ayniqsa, lug‘atdan foydalangan holda ayni bir so‘zning ham turli ma’nolarini, ham uyadoshlarini aniqlash maqsadga muvofiqdir.

Izohli lug‘atlardan foydalanish faqat leksikologiya doirasi bilan cheklanib qolmasdan, tilning barcha sathlarini o‘rganishda ham qo‘llanilmog‘i lozim.

LUG‘ATLAR VA ULARNING TURLARI.

Tildagi jamiki so‘zlar, ularning tarixi, izohi, imlosi kabi muhim masalalar bilan lug‘atshunoslik shug‘ullanadi. Mukammal tuzilgan lug‘at va so‘zliklar u yoki bu tilning boyligini o‘zida to‘playdi. Lug‘atlar qadimdan yaratib kelingan. Masalan, Mahmud Qoshg‘ariy tomonidan XI asrda yaratilgan “Devonu-lug‘otit-turk”, XVI asrda ucmonli turk tilida yaratilgan “Abushqa” lug‘atlari tarixdan bizga ma’lum. Lug‘atlar ikki guruhga bo‘linadi:

Qomusiy lug‘atlarda mashhur shaxslar, ilmiy, siyosiy, adabiy hamda ishlab chiqarishga xos tushunchalar, borliqdagi predmetlar, hodisalar haqida ma’lumot beriladi. “O‘zbek milliy ensiklopediyasi”, “Salomatlik ensiklopediyasi”, “U kim, bu nima” kabi lug‘atlar shular jumlasidandir.

Lingvistil (tilshunoslik) lug‘atlar bir tilli va ko‘p tilli bo‘ladi. Bir tilli lug‘atlarga imlo lug‘ati (so‘zlarni to‘g‘ri yozishga yordam beradi), chappa (ters) lug‘at (so‘zlar oxirgi harfi bo‘yicha alifbe tartibida joylashtiriladi), orfoepik lug‘at (so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishga yordam beradi), morfem lug‘at (so‘zlarni o‘zak va qo‘shimchalarga ajratishga yordam beradi), o‘zlashma so‘zlar lug‘ati (chet tillardan kirgan so‘zlarga ta’rif beriladi), frazeologik lug‘at (iboralar lug‘ati), terminologik lug‘at (ma’lum fan sohasi bo‘yicha atamalarga izoh beriladi), izohli lug‘atlar (tilda mavjud bo‘lgan so‘zlarga izoh beriladi), chastotali lug‘atlar (ma’lum asarlarda so‘zlarning qo‘llanish darajasi haqida ma’lumot beradi), paronimlar lug‘ati (tilda mavjud bo‘lgan talaffuzdosh so‘zlar haqida ma’lumot beradi).

1981- yilda yaratilgan “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” ikki jildan iboratdir. Bu lug‘at so‘zlarning o‘z va ko‘chma ma’nolari haqida to‘la ma’lumot beradi.

Bunday lug‘atlar ma’lum bir ijodkor asarlari bo‘yicha ham yaratilishi mumkin. Masalan, Alisher Navoiy asarlari uchun yaratilgan 4 tomlik lug‘atda 60000dan ortiq so‘z berilgan.

Ko‘p tilli lug‘atlarga esa tarjima lug‘atlari kiradi. O‘zbek tilida mavjud bo‘lgan barcha so‘zlar (shu jumladan, sheva so‘zlari ham yig‘ilsa, 100-120 ming so‘zdan oshib ketadi).

LUG‘ATSHUNOSLIK

*Leksikografiya lotincha **lexikos** “so‘z”, **grapho** “chizmoq”, “yozmoq” so‘zlaridan olingan bo‘lib, lug‘at tuzish amaliyoti va nazariyasi bilan shig‘ullanuvchi tilshunoslikning bo‘limidir.*

Leksikografiya nazariyasining predmeti lug‘at tuzish tamoyillari va usuliyotlaridir.

Leksikografiya amaliyoti esa lug‘at tuzuvchilarning ishini tashkil etish, so‘zlarni kartochkalarga tushirish, sistemaga solish va saqlash singarilarni o‘z ichiga oladi.

Leksikografiya nazariyasida lug‘at turlari, so‘zlik tarkibi va so‘z maqolasining tuzilishi asosiy o‘rinni egallaydi.

Avvalo, lug‘atlar ikki turli bo‘ladi: 1) ensiklopedik (qomusiy) lug‘atlar; 2) filologik (lingvistik) lug‘atlar.

Bu ikki turdagi lug‘atlar lug‘at birliklarining nimaga qaratilgani bilan farqlanadi. Lug‘atga kiritilayotgan birliklar barcha tushunchalarni o‘z ichiga olsa, ensiklopedik (qomusiy) lug‘at; ma‘lum bir tildagi so‘zlarni o‘z ichiga olsa, filologik (lingvistik) lug‘at hisoblanadi.

Savol va topshiriqlar

1. Leksikografiya nima va u naimalar haqida bahs yuritadi?
2. Lug‘at deganda nimani tushunasiz va u qanday turlarga bo‘linadi?
3. Ensiklopedik lug‘at bilan filologik lug‘atlar bir-biridan nimasi bilan farq qiladi ?
4. “Istiqlol ” lug‘at birligini ensiklopedik va filologik jihatdan izohlang.
5. Izohli va tarjima lug‘atlarning farqini ayting.
6. Qanday izohli lug‘atlarni bilasiz?

1-mashq. Ushbu izoh qanday lug‘atdan olingan? U nima deb ataladi va muallifi kim?

Mag‘zini chaqmoq: kim, nimaning? Ma’nosini tag- tubigacha o‘rganib yetmoq, anglab yetmoq. “Yer sotgan er bo‘lmaydi, er yer sotmaydi. Mana bu gapning mag‘zini chaq” (Oybek “Qutlug‘ qon”).

2-mashq. «O‘zbek tilining izohli lug‘ati», (Moskva, “Russkiy yazik”, nashriyoti, 1981- yil, 2 jild)dan ona, diyor, yurt, maskan, o‘yla so‘zlariga berilgan izohlarni o‘qing va ular haqida bahs yuriting.

N a m u n a:

Vatan [a] 1. Kishi tug‘ilib o‘sgan va uning grajdani hisoblangan mamlakat, ona yurt: Ona-Vatan, Ulug‘-Vatan.

2. Kishining tug‘ilib o‘sgan o‘lkasi, shahri yoki qishlog‘i, yurt, diyor: Bulbul chamanni sevar, odam Vatanni.

3. Turar joy, boshpana, maskan, uy: o‘ziga vatan qurmoq.

3-mashq. Matnni o‘qing. Tarixda yaratilgan yana qanday lug‘atlarni bilasiz. Shu haqda so‘zlab bering.

Atoqli tilshunos olim Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asari turkiy xalqlarning ilk lug‘ati sanaladi.

Muallif uni 1072- yilda yoza boshlagan va 1074- yilda yozib tugatgan. Bunga qadar u bir necha o‘n yillar davomida Chin (Xitoy)dan tortib to Rum (Vizantiya)ga qadar bolgan ulkan hududda yashovchi turkiy qabilalarni birma- bir o‘rganib chiqqan. Bu haqda uning o‘zi shunday deb yozadi:

- Men turklar, turkmanlar, o‘g‘izlar, chigillar, yog‘molar, qirg‘izlarning shaharlarini, qishloq va yaylovlarini ko‘p yillar kezib chiqdim, lug‘atlarini to‘pladim. Men bu kitobni maxsus alifbe tartibidagi hikmatli so‘zlar, sa’jlar, maqollar, rajaz va nasr deb atalgan adabiy parchalar bilan bezadim.

Bu ishda misol tariqasida turklarning tilida qo‘llanib kelgan she’rlaridan, shodlik va motam kunlarida qo‘llaniladigan hikmatli so‘zlaridan, maqollaridan keltirdim.

Devon ikki qismdan iborat: “Muqaddima” va “Lug‘at” qismlaridan.

Undan mehnat va marosim qo‘shiqlari, o‘g‘itnomalar, munozara shaklidagi to‘rtliklar. Alp Er To‘ng‘a (Afrosiyob) marsiyasi kabi ajoyib adabiy yodgorliklar o‘rin olgan.

“Devonu lug‘atit turk” bitmas-tuganmas ilm manbaidir.

ENSIKLOPEDIK (QOMUSIY) LUG‘ATLAR VA ULARDAN FOYDALANISH.

Ensiklopedik (qomusiy) lug‘atda turli xil tarixiy voqealar, tarixiy shaxslar, ilmiy tushunchalar va boshqalar o‘z ifodasini topadi.

Umuman, ensiklopedik lug‘atlar ma’lum bir xalqning madaniy-ma’naviy, ilmiy-amaliy; siyosiy-iqtisodiy hayotiga doir barcha tushunchalarni qamrab oladi va bu tushunchalar unda o‘z izohini topadi.

Qomusiy lug‘atlarni yaratish uzoq davom etadigan, mashaqqatli ish sanaladi. Unga kiritiladigan maqolalar tushunarli, ravon tilda berilishi, ular turli-tuman kartalar, sxemalar, rangli va oq-qora rasmlar, atoqli shaxslarning portretlari bilan bezatilishi lozim.

Misol uchun 14 jildlik O‘zSEning 1-jildini tayorlash ishida 14 ta akademik, 13 ta akadimiyaning muxbir a‘zosi, 88 ta fan doktori, professor, 539 ta fan nomzodi va boshqa ko‘plab mutaxassislar qatnashgan. Unda 3350 ta maqola mavjud. Mazkur jild ustida 1965-1971-yillar mobaynida tayyorlov ishlari olib borilgan.

1971-1980- yillar oralig‘ida O‘zSEning 14 jildi nashrdan chiqqan. O‘sha davr uchun bu juda katta voqea edi, lekin bu qomusiy lug‘atdan ko‘plab maqolalar bugungi kun talabiga javob bermaydi, eskirdi. Ularni qayta ishlash, mustaqillik mafkurasi nuqtai nazaridan yoritish lozim bo‘lib qoldi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi “O‘zbek Milliy ensiklopediyasi”ni yaratish to‘g‘risidagi maxsus qaror qabul qilgan bo‘lib, hozirda bu ish jadal su‘ratlar bilan olib borilmoqda. Ensiklopediyaning bir nechta tomlari o‘quvchilar qo‘liga borib yetdi.

Toshkent shahrida qomusiy lug‘atlar va kitoblarni nashr etish bilan shig‘ullanayotgan alohida tashkilot –Qomusiy lug‘atlar Bosh redaksiyasi ish olib bormoqda.

4-mashq. “U kim? Bu nima?” (“Bolalar ensiklopediyasi”, Toshkent, 1987-1988 yillar, 3 jildlik) kitobidan olingan quyidagi matnni o‘qing. So‘ng istagan harfingizni ochib, o‘zingingizga ma‘qul bo‘lgan so‘zning izohini daftaringizga ko‘chirib oling, izohlang.)

Kitobdagi barcha maqolalar alifbe tartibida joylashgan. Birinchi kitob A-Y harflari bilan, ikkinchi kitob K-R harflari bilan, uchunchi kitob S-H harflari bilan boshlanadigan maqolalarni o‘z ichiga oladi.

Masalan, sizni “Buxoro” maqolasi qiziqtiradi.1-jildning 99- betidagi B harfi mundarijasiga qarang. U yerda kitobdagi B harfi bilan boshlanadigan hamma maqolalar ko‘rsatib qo‘yilgan. “Buxoro”ni topdingizmi? Kitobning qaysi betida shu haqda hikoya qilingan? 150-betida. Mana, maqolaning o‘zi. Unda ko‘hna Buxoro haqida, uning tarixi, ajoyib yodgorliklari to‘g‘risida hikoya qilingan. Shu jilddan jiyda, zilzila, ibn Sino, yolbars kabi boshqa maqolalarni ham topishingiz mumkin.

FILOLOGIK LUG‘ATLAR VA ULARNING TURLARI.

IZOHLI LUG‘AT. TARJIMA LUG‘ATI VA ULARDAN FOYDALANISH

Filologik lug‘atlar ma’lum bir tildagi so‘zlarni o‘z ichiga oladi. So‘zlar muayan bir tartibda (yo – alifbe asosida, yo mazmuniy guruhlar asosida) joylashtiriladi.

Filologik lug‘atlarning o‘zi, eng avvalo, izohli va tarjima lug‘atlariga bo‘linadi.

Tildagi so‘zlarni izohlashga qaratilgan lug‘atlar izohli lug‘at, muayan tildagi so‘zlarning ikkinchi tilga tarjimasini berishga qaratilgan lug‘atlar esa tarjima lug‘at sanaladi.

1981 yili Moskvadagi “Russkiy yazik” nashriyotida nashr qilingan 2 jildlik “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”, 2001-yili Toshkentdagi “Sharq” nashriyot- matbaa konserni bosh tahririyati tomonidan nashr etilgan “O‘zbek tili faol so‘zlarining izohli lug‘ati” yoki o‘zbekcha-ruscha, inglizcha – ruscha - o‘zbekcha lug‘atlar bunga misol bo‘la oladi.

Izohli lug‘atlar so‘zlikning tanlanishiga ko‘ra umumiy va tarmoq lug‘atlarga bo‘linadi. Tilning barcha so‘zlarini izohlashga qaratilgan lug‘atlar umumiy izohli lug‘atlar, ma’lum bir tarmoqqa doir so‘zlarnigina tanlab, ularni bir tartibda joylashtirib izohlashni maqsad qilgan lug‘atlar tarmoq lug‘at hisoblanadi (Masalan, kasb-hunarga doir lug‘atlar, ma’lum fan sohasi bo‘yicha atamalar lug‘ati va boshqalar.

Har qanday lug‘at shu lug‘atning egasi bo‘lagan xalqning katta madaniy va ma’naviy boyligi sanaladi.

5-mashq. Quyidagi berilgan izohli lug‘atlarning nomini va nashr ma’lumotlarini daftaringizga yozib oling. Ularni topib, mazkur lug‘atlar bilan ishlashni o‘rganing.

Navoiy asarlari lug‘ati- Toshkent, G‘ofur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1972, 784 bet.

O‘zbek tilining izohli lug‘ati-Moskva: “Russkiy yazik” nashriyoti,1981, 1-jild, 632 bet, 2- jild,715 bet.

Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati-Toshkent, FAN nashriyoti,1 –jild, 656 bet, 1983; 2 –jild, 644 bet, 1983; 3 –jild, 622 bet,1984; 4 –jild, 634 bet,1984;

Mustaqillik izohli ilmiy-ommabop lug‘ati, - Toshkent: “Sharq” nashriyot – matbaa konserni bosh tahririyati, 2001.

6-mashq. “Mustaqillik izohli ilmiy- ommabop lug‘ati” (Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa konserni Bosh tahririyati, 1998-yil, 318- bet)idan olingan.

Alternativa (13-bet), birja (22-23- betlar), investisiya (68-69- betlar), mafkura (106-107 betlar), ombudsman (179-180 betlar), xalqaro tillar (231-232-betlar) kabi atamalardan biriga berilgan izohni daftaringizga ko‘chirib yozing va shu haqda fikr yuriting.

7-mashq. “Mustaqillik izohli ilmiy-ommabop lug‘ati”dan olingan quyidagi parchani o‘qing.

Davlat tuzilishi va uning shakllari. Davlat o‘z tuzilishi jihatidan uch turda: federativ, konfederativ va unitar tarzda bo‘lishi mumkin. Bunday holat davlatning tarkibiy qismlari o‘rtasidagi, qismlarning markaziy hokimiyat bilan o‘zaro munosabatlari, shuningdek har bir hududiy qismning huquqiy mavqei mohiyat kasb etishidan kelib chiqadi.

Unitar (yaxlit) davlatlar, federatsiyadan farqli o‘laroq, viloyat, o‘lka, tuman, guberniya, grafliklar singari ma’muriy- hududiy qismlardan tashkil topgan tuzumdur.

Federativ (murakkab) davlatlar esa davlatchilikning avtonom (muxtor) shtatlar, hududiy yer birliklari shtatlar, GFRda hududiy yer birliklari federatsiyaning tarkibiy qismlaridir).

Konfederatsiya davlat tuzilishining shunday bir shakli, unga ko'ra konfederatsiyani tashkil etuvchi davlatlar o'z mustaqilliklarini to'la saqlab qolgan holda muayan bir maqsad (harbiy, xo'jalik, muhim ichki va tashqi siyosat masalalari)da o'z kuchlarini uyg'unlashtirib, ish ko'radilar.

Savol va topshiriqlar

1. O'zbekiston Respublikasining davlat tuzilishi haqida so'zlab bering?
2. Unitar davlat deganda nimani tushunasiz?
3. O'zbekiston Respublikasida davlat kim tomonidan boshqariladi?

8-mashq. O'zbekcha- ruscha lug'at (Toshkent O'zSE Bosh redaksiyasi, 1988)dan olingan quyidagi parchaga diqqat qiling. Tarjima lug'atlarning o'ziga xos xusuiyatlari haqida fikr yuriting.

BILIM 1. Знание, познание (в какой – л. области):

Kuch-da сила в знании: - **yurti**

1. Учебное заведение: училище
2. Ист. институт просвещения:- **olmoq** получать знание:
3. Наука, отрасль знания: **til-i** языкознание.

BILIMDON- знающий, сведующий, имеющий, глубокие познания (в какой-л области): образованный, эрудированный // эрудитли.

-агроном знающий агроном.

BILIMDONLIK знания, обладание знаниями или навыками: образованность, эрудиция – **qilmoq** ирон. мудрить, мудрствовать.

9-mashq. *O‘zbekcha-inglischa, o‘zbekcha-nemischa, o‘zbekcha-fransuzcha lug‘atlarda so‘zlar qanday beriladi.*

Uyingizda ulardan namunalar bo‘lsa, ikki-uchta so‘zga berilgan izohni ko‘chirib yozing va ular haqida fikr yuriting.

10-mashq. *A.O‘lmasov, N.To‘xliyevlarning “Bozor iqtisodiyoti” (qisqacha lug‘at-ma’lumotnoma)dan olingan tubandagi misolni daftaringizga yozib oling. So‘ng barter, debitor, diller, lizing, marketing, xolding-kompaniya so‘zlariga izoh berishga urinib ko‘ring.*

POLIS (fr. Polici, ital. pollissa –tilxat)- shaxsiy yoki mulkiy sug‘urta shartnomasi zarurat tug‘ilganda sug‘urtachiga qarshi da’vo qo‘zg‘atib zararni undirish uchun sudga taqdim etiladigan rasmiy hujjat.

11-mashq. *“O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati (Toshkent O‘qituvchi, 1984)dan olingan tubandagi misolni o‘qing. So‘ngra, zang, qarshi, kech, mushak, oqim, to‘y, yet, qil kabi omonimlarga u kabi izoh bering.*

BOG‘

Bog‘ 1 ot. Biror narsaning to‘dalay bog‘langan holati (сноп, вязанка, пучок). Bog‘lamoq, bog‘lash **bir bog‘ beda, bir bog‘ piyoz** (ukrop, kashnich, rediska).

Bog‘ 2 (tojikcha) ot. Uzum (tok), mevali daraxtlar ko‘p ekilgan yer uchastkasi (sad). Bog‘bon, bog‘dor, bog‘iston, bog‘cha (bolalar bog‘chasi), bog‘-rog‘, bog‘-bo‘ston. Uzumini ye, bog‘ini surishtirma. Boqqa boqsang bog‘ bo‘ladi, botmon dahsar yog‘ bo‘ladi (maqol).

IMLO LUG'ATI VA ETIMOLOGIK LUG'AT HAMDA ULARDAN FOYDALANISH

Har bir tilda shu tildagi so'zlarni to'g'ri yozishga qaratilgan maxsus qonun-qoidalar majmui bo'ladi. Bunga imlo yoki orfografiya qoidalari deyiladi.

Imlo qoidalari amaldagi yozuvga mos ravishda yaratiladi. Kirill yozuviga asoslangan hozirgi o'zbek yozuvi uchun bugungi kunga qadar 1956-yilda yaratilgan imlo qoidalari asos vazifasini o'tab kelmoqda.

Lotin yozuviga asoslangan yzngi o'zbek yozuviga o'tilishi munosabati bilan imlo qoidalariga ham sezilarli darajada o'zgartirishlar kiritildi. Shu munosabat bilan 1995 -yili prof.A.Hojiyev muharrirligida yangi "O'zbek tilining imlo lug'ati" nashr qilindi.

Imlo lug'atlarida so'zlar orfografiya qoidalari asosida alifbe tartibi bilan beriladi.

12-mashq. "O'zbek tilining imlo lug'ati"dan foydalanib tubandagi so'zlarning yozilishiga diqqat qiling.

Taajjub, budjet, taassurot, bug'doy, televideniye, e'lon, e'tibor, izzat, jo'shqin, ko'za, mo'jiza, muomala, mo'tabar, oktabr, lustra

ETIMOLOGIK LUG'AT VA UNDAN FOYDALANISH

Tildagi har bir so'z o'zining kelib chiqish tarixiga, etimologiyasiga ega. Masalan Toshkent so'zi qadimda Shosh, Choch nomlari bilan yuritilgan. Aytishlariga qaraganda, bug'doy, sholi yanchiladigan xirmonning o'rnini, maydonni choch, shosh, deb atashgan ekan. Unga joy ma'nosini bildiruvchi kent so'zini qo'shishib, Chochkent-Toshkent deb atay boshlashgan.

Tildagi soʻzlarning kelib chiqish tarixini oʻz ichiga olgan lugʻatlar etimologik lugʻatlar sanaladi.

Prof. Sh.Rahmatullayevning koʻp yillik samarali mehnatlari tufayli oʻzbek tilida ham dastlabki etimologik lugʻat paydo boʻldi.

13-mashq. Quyidagi savollarga javob bering.

1. Lugʻat nima?
2. Lugʻatlar qanday guruhlanadi va turlarga boʻlinadi?
3. Siz qanday lugʻatlarni bilasiz?
4. Istalgan lugʻat toʻgʻrisida quyidagi reja asosida referat yozing:
 1. Lugʻat kim tomonidan va qachon tuzilgan?
 2. Lugʻat nomi kimlarga moʻljallangan?
 3. Lugʻatda izohlangan soʻzlarning soni.
 4. Lugʻatda soʻzlarning joylashtirilishi.
 5. Lugʻat maqolachasining mazmuniy mundarijasi.
 6. Maʼnoni izohlashning qanday usullaridan foydalanilgan?

14-mashq. “Oʻzbek tili faol soʻzlarining izohli lugʻati” (Toshkent, “Sharq” nashriyot-matbaa konserni bosh tahririyati, 2001)dan sammit, tadbirkor, fermer, kollej, litsey kabi soʻzlarni topib daftaringizga koʻchiring va ularning qanday izohlanganligiga diqqat qiling.

Tayanch tushunchalar:

Lugʻatshunoslik, leksikografiya, ensiklopedik (qomusiy) lugʻat, filologik (lingvistik) lugʻat, izohli lugʻat, tarjima lugʻat, imlo lugʻati, etimologik lugʻat.

O‘tilganlar yuzasidan test topshiriqlari

1. Leksiko grafiya nimani o‘rgatadi?

- a) So‘z va uning tuzilishini
- b) So‘zlarning umumiy xususiyatlarini
- c) So‘zlarning kelib chiqish tarixini
- d) Lug‘at va uning turlarini
- e) Gap va uning turlarini

2. Izohli lug‘atlarda fe’llar qanday shakllarda beriladi?

- a) Ravishdosh shaklida
- b) Sifatdosh shaklida
- c) Harakat nomi shaklida
- d) Sof fe’l shaklida
- e) Matndagi shaklida

3. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” nechanchi yili va qayerda nashr etilgan?

- a) 1991- yili Toshkentda
- b) 1995- yili Samarqandda
- c) 1981- yili Moskvada
- d) 1969- yili Toshkentda
- e) Hozirgacha bunday lug‘at chop etilgan emas.

4. “Imlo lug‘atlari so‘zlarning qaysi jihatlari hisobga olingan bo‘ladi?

- a) To‘g‘ri talaffuz qilinishi
- b) O‘zak va qo‘shimchalarga ajralishi
- c) Kelib chiqish tarixi
- d) Sintaktik vazifalari
- e) To‘g‘ri yozilishi.

5. Ma'lum bir xalqning madaniy-siyosiy, ilmiy-amaliy, iqtisodiy hayotiga doir barcha ma'lumotlarni qamrab olgan lug'atlarga qanday lug'atlar deyiladi?

- a) Etimologik lug'at
- b) Izohli lug'at
- c) Qomusiy lug'at
- d) Lingvistik lug'at
- e) Ko'p tillik lug'at.

6. Hozirga qadar o'zbek tilida yaratilmagan lug'atni belgilang.

- a) Chappa lug'at
- b) Etimologik lug'at
- c) Omonimlarning izohli lug'ati
- d) Qo'shma so'zlar lug'ati
- e) Navoiy asarlarining izohli lug'ati.

7. Lug'atlardagi so'zlar qanday tartibda beriladi?

- a) Alifbe tartibida
- b) Hamisha bosh harf bilan
- c) Tarixiy shakllarida
- d) To'g'ri kelgan shaklda
- e) Bu narsa lug'at yaratuvchilariga bog'liq

8. "O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati" kim tomonidan yaratilgan?

- a) A. Hojiyev
- b) Sh. Rahmatullayev
- c) M. Asqarova
- d) Sh. Shoabdurahmonov
- e) A. G'ulomov

9. Mahmud Qoshgʻariy oʻzining “Devonu-lugʻotit turk” asarini nechanchi yilda yaratgan?

- a) 1072-1074 yillarda
- b) 1069 yilda
- c) Yaratilgan yili maʼlum emas
- d) 1483 yilda
- e) 871 yilda

10. “Oʻzbek tilining izohli lugʻati” necha tomdan iborat?


- a) Bir tomdan
- b) Besh tomdan
- c) Ikki tomdan
- d) Olti tomdan
- e) Bir tomdan

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. A.Hojiyev. O'zbek tilining imlo lug'ati. Toshkent. 1995 –yil.
2. O'zbek tili faol so'zlarining izohli lug'ati. Toshkent. 200-yil.
3. O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati. Toshkent. 1984-yil.
4. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. Toshkent. 2002-yil.

MUNDARIJA

Kirish	3
1. Talabalarda lugʻatlardan foydalanish malakasini shakllantirish....	4
2. Lugʻatlar va ularning turlari.....	6
3. Lugʻatshunoslik	7
4. Ensiklopedik (qomusiy) lugʻatlar va ulardan foydalanish.....	9
5. Filologik lugʻatlar va ularning turlari.izohli lugʻat. Tarjima lugʻat va ulardan foydalanish.....	11
6. Imlo lugʻati va etimologik lugʻat hamda ulardan foydalanish.....	15
7. Etimologik lugʻat va undan foydalanish.....	16
8. Oʻtilganlar yuzasidan test topshiriqlari.....	17
9. Foydalanilgan adabiyotlar	20



RAHIMOVA KOMILA NAPASOVNA

**Lugʻatlar ustida ishlash orqali yozma va
ogʻzaki nutqni rivojlantirish
(Metodik koʻrsatma)**

Muharrir: M. Nurtoyeva

Musahhix: D. Arziqulova

*Bosishga ruxsat etildi _____ Qogʻoz oʻlchami 60x84 _____
Hajmi ... bosma taboq nusʻha buyurtma № 176
TIMI bosmaxonasidan chop etildi.
Toshkent-100000. Qori Niyoziy koʻchasi 39 uy.*

